


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-mart oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 5 423,4 mldr. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar-mart oylarida YAHM deflyator indeksi 115,0 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)**—milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

### YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda 2022- yil yanvar-mart oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 101,9 foiz (umumiyl ulushning 30,8 foizi), jami xizmatlar - 105,2 foiz (umumiyl ulushning 45,0 foizi), sanoat – 115,7 foiz (umumiyl ulushning 17,7 foizi) ni tashkil qildi.


**Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy  
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**

	<i>mldr. so'm</i>		<i>2021- yil yanvar-mart oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>4 450,8</b>	<b>5 423,4</b>	<b>106,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 262,1	5 195,4	105,7
mahsulotlarga sof soliqlar	188,7	228,0	112,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>4 262,1</b>	<b>5 195,4</b>	<b>105,7</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 366,2	1 601,4	101,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	912,0	1 258,4	112,3
sanoat	623,8	918,2	115,7
qurilish	288,2	340,2	105,0
<b>Xizmatlar</b>	<b>1 983,9</b>	<b>2 335,6</b>	<b>105,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	306,1	368,4	108,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	309,2	358,7	110,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 368,6	1 608,5	103,2

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'sir sanoat (ishlab chiqarish indeksi 115,7 foiz) va qurilish (o'sish sur'ati 105,0 foiz) tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 65,2 foizi kichik tadbirdorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2021- yil yanvar-mart oylarida 68,8 foizni tashkil qilgan.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da (jamiga nisbatan foizda)


2022- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 30,8 foizni tashkil qildi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,3 punktga (32,1 foiz) kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 24,2 foizni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,8 punktga (21,4 foiz) ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 45,0 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga nisbatan 1,5 punktga (46,5 foiz) kamaydi.




## **Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi**

*(yanvar-mart oylari, jamiga nisbatan ulushi)*

**2021- yil**




**2022- yil**




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIM ni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘sghan hissasi 3,3 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

## **Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda**




Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 813,7 ming so‘nni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,2 foiz o‘sishga erishildi.

*Yanvar-mart oylarida viloyat aholi jon boshiga hisoblangan  
YAHM hajmi va o'sish sur'ati*



*Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)*



2022- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 45,0 foiz (2021- yil yanvar-mart oylarida 46,5 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 7,1 foizni (2021- yil yanvar-mart oylarida 7,2 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 6,9 foizni (2021- yil yanvar-mart oylarida 7,3 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar–31,0 foizni (2021-yil yanvar-mart oylarida 32,0 foiz) tashkil etdi.

**O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma  
makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari**  
(2022- yil yanvar-mart)

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikadagi ulushi % da</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati % da</i>	<i>yanvar- mart 2021 - y.</i>	<i>yanvar- mart 2022- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	162 784,6	105,8	5 423,4	106,0	3,3	3,3
Sanoat	113 990,2	105,7	3 833,9	115,7	2,7	3,4
Iste’mol tovarlari	36 297,9	124,0	2 355,3	131,1	4,9	6,5
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	33 474,3	102,8	2 752,0	102,0	8,0	8,2
Investitsiyalar	50 060,7	126,3	1 376,5	133,2	2,6	2,7
Qurilish ishlari	24 071,6	106,3	771,9	105,0	3,3	3,2
Chakana tovar aylanmasi	59 057,3	110,8	2 633,4	116,6	4,2	4,5
Xizmatlar, jami	73 774,2	115,9	2 194,4	112,5	3,1	3,0
Eksport (mln. AQSh doll.)	5 772,7	238,7	53,6	108,8	2,0	0,9
Import (mln. AQSh doll.)	7 383,1	144,6	57,3	60,7	1,8	0,8

2022- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 5423,4 mld. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,3 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 833,9 mld. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,4 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,7 foizni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 2 355,3 mld. so‘mlik xalq iste’mol tovarlari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 6,5 foizi) ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 131,1 foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 2 752,0 mld. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 8,2 foiz) tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,0 foizga etdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 376,5 mld. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 133,2 foizni (respublikadagi ulushi 2,7 foiz) tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart oylarida 771,9 mld. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,2 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 633,4 mld. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,5 foiz), o‘sish sur’ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 116,6 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 2 194,4 mld. so‘mni, (respublikadagi ulushi 3,0 foizni) tashkil qildi va 2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish 112,5 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-mart oylarida 110,9 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 0,8 foizni), o‘sish sur’ati 77,2 foizni, jumladan: eksport – 53,6 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 0,9 foizni), o‘sish sur’ati 108,8 foizni, import – 57,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 0,8 foizni), o‘sish sur’ati 60,7 foizni tashkil etdi.